



JADID DAVRI YOZMA MANBALARIDA ARXAIKLASHGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Farmonova Umida Maxsutaliyevna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

FarDU tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi.

U1910638@gmail.com

+998999230201

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1797>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 33

**KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА**

Jadid davri, frazeologik birlik, arxaiik frazema, tarixiy variantdoshlik, semantik o'zgarish, eskirgan komponent, somatik frazema, poetik obraz, lingvomadaniy mazmun

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Maqolada jadid davri yozma manbalarida uchraydigan arxaiiklashgan frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Unda frazeologizmlar tarkibidagi eskirgan so'zlarning zamonaviy muqobillari bilan almashinuvi, tarixiy variantdoshlik, semantik yaqinlik hamda poetik obrazlilik masalalari Behbudiy, Avloniy va Fitrat asarlaridan olingan misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, arxaiik frazemalarning o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va madaniy xotirasini aks ettirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Tahlil jarayonida arxaiiklashgan frazeologik birliklarning faqat tarkibiy jihatdan eskirishi emas, balki ularning semantik yadrosi, variantdoshlik munosabati va kontekstual-uslubiy vazifalari ham e'tiborga olindi. Tadqiqotda ayrim tarixiy frazemalarning hozirgi o'zbek tilida shakliy jihatdan o'zgargan holda semantik davomiylik kasb etishi, ayrimlarining esa poetik va tarixiy uslub doirasida saqlanib qolishi aniqlandi. Somatik komponentli birliklar orqali insonning ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarini obrazli ifodalashning tarixiy barqarorligi ochib berildi. Shuningdek, jadid adiblari nutqida arxaiik frazemalarning tarixiy kolorit yaratish, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish, kinoyaviy-tanqidiy munosabatni ifodalash va milliy-madaniy mazmunni yetkazishdagi funksional imkoniyatlari yoritildi. Mazkur kuzatishlar arxaiik frazeologik birliklarni o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va lingvomadaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim til materiali sifatida baholash imkonini beradi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 33

KEYWORDS

Jadid period, phraseological unit, archaic phraseology, historical variation, semantic change, obsolete component, somatic phraseology, poetic image, linguocultural meaning

ANNOTATION

The article examines the lexical-semantic features of archaic phraseological units found in written sources of the Jadid period. Based on examples from the works of Behbudiy, Avloniy and Fitrat, the study discusses the replacement of obsolete components by modern equivalents, historical variation, semantic relations and poetic imagery. Particular attention is paid to the role of archaic phraseological units in reflecting the historical development of the Uzbek language and preserving cultural memory. The analysis considers not only the formal obsolescence of archaic phraseological units but also their semantic core, variant relations, and contextual-stylistic functions. The study demonstrates that some historical phraseological units have retained their semantic continuity in modern Uzbek despite undergoing formal changes, while others have survived mainly within poetic and historical styles. Particular attention is paid to somatic phraseological units, through which the historical continuity of metaphorical representations of human psychological states and social relations is revealed. The study also highlights the functional potential of archaic phraseological units in the works of Jadid authors, particularly their ability to create historical and cultural coloration, intensify emotional expressiveness, convey ironic and critical attitudes, and preserve national-cultural meanings. These observations make it possible to regard archaic phraseological units as important linguistic material reflecting the historical development and linguocultural memory of the Uzbek language.

Kirish

Frazeologik birliklar tilning eng barqaror qatlamlaridan biri sanalsa-da, ular tarixiy taraqqiyot davomida mutlaqo o'zgarimas hodisa bo'lib qolmaydi. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, leksik tarkibning yangilanishi va adabiy til me'yorlarining takomillashishi natijasida ayrim frazemalar faol iste'moldan chiqadi, ba'zilarining tarkibiy qismlari yangilanadi, boshqalari esa faqat tarixiy va poetik uslub doirasida saqlanib qoladi. Shu bois arxaiiklashgan frazeologik birliklarni diaxron aspektida o'rganish o'zbek tilining tarixiy frazeologik tizimini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Jadid davri o'zbek adabiy tili taraqqiyotida an'anaviy yozma nutq me'yorlari bilan yangi ijtimoiy-ma'rifiy tafakkur talablari o'zaro tutashgan muhim tarixiy bosqichlardan biridir. Mazkur davr yozma manbalarida mumtoz adabiy til an'analari, xalqona nutq unsurlari, arabcha va forsa o'zlashmalar bilan bir qatorda, keyinchalik faol qo'llanish doirasidan chekingan ko'plab leksik va frazeologik birliklar ham uchraydi. Shu sababli jadid matnlari nafaqat adabiy-tarixiy, balki o'zbek tilining tarixiy leksik va frazeologik tizimini tiklash uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Arxaiiklashgan frazeologik birliklarning o'ziga xos jihati shundaki, ulardagi eskirish jarayoni frazemaning barcha tarkibiy qismlariga bir xil darajada ta'sir qilmaydi. Ayrim hollarda faqat bitta komponentning iste'moldan chiqishi natijasida iboraning shakli tarixiylashadi, biroq uning umumiy mazmuni zamonaviy tilda boshqa leksema yoki frazeologik model vositasida davom etadi. Boshqa holatlarda esa frazemaning shakli saqlangan

holda uning ayrim ma'no qirralari o'zgaradi yoki birlik faqat badiiy-poetik uslub doirasida yashashda davom etadi. Demak, frazeologik arxaiiklashuvni faqat "eskirgan ibora" tushunchasi bilan chegaralash yetarli emas; uning tarkibiy, semantik, uslubiy va funksional tomonlarini birgalikda kuzatish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning shakllanishi, taraqqiyoti va semantik xususiyatlarini o'rganish masalasi milliy tilshunoslikda izchil tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlarda frazemalarning barqarorligi bilan bir qatorda, ularning tarixiy taraqqiyot jarayonida tarkibiy va ma'noviy jihatdan o'zgarib borishi ham muhim masala sifatida qaratiladi. Sh. Rahmatullayevning frazeologik tadqiqotlari o'zbek tilidagi turg'un birikmalarning lug'aviy tarkibi, ma'no munosabatlari, variantdoshligi va qo'llanish xususiyatlarini belgilash uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Xususan, olimning *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida* frazemalarning ma'nosi, tarkibiy tuzilishi va variantlari izohlanib, frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi hamda tarkibiy barqarorligi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [9, 5–12-b.]. Keyingi yillarda nashr etilgan *O'zbek tili frazeologik lug'ati* esa frazeologik birliklarning ma'no va variantlarini yanada kengroq qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Unda *yuz(i)ga solmoq* kabi birliklarning ma'nosi va variantlari berilishi arxaiik shakllarni hozirgi til birliklari bilan qiyoslash imkonini beradi [2, 265, 582-betlar].

Frazeologizmlarning tarixiy taraqqiyotini anglashda ularning tarkibidagi ayrim komponentlarning eskirishi yoki faol qo'llanishdan chiqishi alohida ahamiyat kasb etadi. A.E. Mamatov o'zbek frazeologizmlarining shakllanishi va taraqqiyotini tadqiq etar ekan, frazeologik birliklarning til taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini, ularning tarkibi va semantik tuzilishi tarixiy jarayonlarda muayyan o'zgarishlarga uchrashini ko'rsatadi [10, 32–41-b.]. B. Yo'ldoshevning o'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarida frazeologik birliklarni yig'ish, tavsiflash, lug'atlashtirish va ilmiy tasniflash jarayonlari yoritilgan bo'lib, tarixiy manbalardagi frazemalarni zamonaviy frazeologik tizim bilan qiyoslash uchun zarur metodologik asoslar belgilangan [11, 24–33-b.]. Mazkur qarashlar jadid davri yozma manbalarida uchraydigan, hozirgi adabiy tilda faol qo'llanmaydigan yoki shakli o'zgargan frazemalarni tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Frazeologik birliklarning leksik-semantik tabiatini aniqlashda umumiy leksikologik tadqiqotlar ham muhim o'rinni tutadi. A. Hojiyev til birliklarining ma'no taraqqiyoti, shakl va mazmun munosabati hamda leksik-semantik o'zgarishlarini izohlash orqali eskirgan va tarixiy qatlama oid birliklarni tavsiflashning nazariy imkoniyatlarini kengaytiradi [15, 31–39-b.]. H. Jamolxonovning hozirgi o'zbek adabiy tiliga oid tadqiqotlarida ham leksik birliklarning faol va nafaol qatlamlari, eskirgan so'zlar, tarixiy birliklar va ularning adabiy tildagi o'rni masalalari yoritilgan [13, 102–110-b.]. H. Ne'matov va R. Rasulovlarning sistem leksikologiyaga oid qarashlari esa til birliklarini ma'no munosabatlari asosida tizimli o'rganish, semantik yaqinlik va qarama-qarshiliklarni aniqlash nuqtayi nazaridan muhimdir [14, 43–51-b.]. Ushbu nazariy qarashlar arxaik frazemalarni faqat tarkibida eskirgan so'z mavjudligi bilan emas, balki mazkur komponentning frazeologik ma'no shakllanishidagi vazifasi orqali baholash zarurligini ko'rsatadi.

Arxaiklashgan frazeologik birliklarning ayrim komponentlari tarixiy leksik qatlama mansub bo'lishi mumkin. Shu jihatdan *O'zbek tilining izohli lug'ati* materiallari muhim manba sanaladi. Mazkur lug'atda bugungi adabiy tilda kam qo'llanadigan yoki muayyan uslubiy qatlama saqlangan leksemalarning ma'nolari, kelib chiqishi va qo'llanish doirasi haqida ma'lumotlar beriladi [5, 9–16-b.]. Xususan, *xob*, *sadpora*, *poya* singari leksemalarning tarixiy-poetik matnlardagi ma'no imkoniyatlarini aniqlashda lug'aviy manbalar asosiy tayanch vazifasini bajaradi [5, 304, 403, 419-betlar]. Bunday birliklarning frazema tarkibidagi mavqeyini aniqlash orqali arxaiklashuvning faqat alohida leksemaga emas, balki butun frazeologik modelga ta'sirini ham kuzatish mumkin.

Sh. Rahmatullayevning etimologik tadqiqotlari ham arxaik frazemalar tarkibidagi o'zlashgan komponentlarning tarixiy-semantik xususiyatlarini aniqlash uchun muhimdir. Olim o'zlashgan qatlama mansub so'zlarning kelib chiqishi, dastlabki ma'nosi va o'zbek tilidagi semantik taraqqiyotini izohlaydi [17, 21–30-b.]. Bu jihat, ayniqsa, fors-tojik tilidan o'zlashgan *xob*, *sadpora*, *poya* singari leksemalarning jadid davri matnlardagi frazeologik va obrazli qo'llanishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, G. Abdurahmonov va H. Rustamovning qadimgi turkiy tilga oid tadqiqotlari turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lgan somatik komponentli birliklarning tarixiy ildizlarini aniqlash uchun nazariy zamin yaratadi [16, 54–62-b.]. Ayniqsa, *ko'z*, *yuz*, *bag'ir* kabi somatik komponentlarning uzoq tarixiy davrlar davomida obraz yaratish vositasi sifatida qo'llanib kelgani frazeologik birliklarning barqarorligini ko'rsatadi.

Frazeologik birliklarning holat va ruhiy kechinmalarni ifodalash imkoniyatlari Sh. G'aniyevaning tadqiqotlarida ham alohida yoritilgan. Olimaning "holat" arxisemali frazemalarga bag'ishlangan ishida insonning ruhiy, jismoniy va psixologik holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik tarkibi tahlil qilinadi [6, 96-b.]. Mazkur yondashuv *bag'ri sadpora*, *xobi g'afat boshiga yetmoq*, *ko'zdan tushmoq* singari birliklarning ma'nosini komponentlar orqali emas, balki yaxlit frazeologik semantika asosida ochib berish uchun muhimdir. Bunday birliklarda somatik komponentning o'zi mustaqil ma'nodan ko'ra, insonning ruhiy holatini obrazli ifodalovchi semantik markaz sifatida namoyon bo'ladi.

Jadid davri yozma manbalarini o'rganishda frazeologik birliklarning tarixiy-madaniy muhit bilan aloqasini hisobga olish zarur. B. Qosimovning milliy uyg'onish davri ma'rifatparvarlari faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarida jadidchilik harakatining ijtimoiy-ma'rifiy mazmuni, milliy tafakkur va adabiy jarayon bilan munosabati keng yoritilgan [18, 25–38-b.]. B. Qosimov, U. Dolimov, Sh. Rizaev va boshqalarning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarida esa jadid adabiyotining g'oyaviy-estetik xususiyatlari, adabiy til va milliy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilingan [19, 15–27-b.]. Mazkur manbalar frazemalarni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki davrning ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi til birliklari sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Jadid adiblarning bevosita badiiy va publitsistik merosi arxaik frazeologik birliklarning real matndagi funksiyasini aniqlash uchun asosiy

birламchi manba hisoblanadi. M. Behbudiyning saylanma asarlarida publitsistik va badiiy nutqning o'zaro uyg'unligi, xalqona iboralar, arabcha-forscha o'zlashmalar hamda davrga xos leksik qatlarning faol qo'llangani kuzatiladi [3, 80–90-b.]. Xususan, *yuzig'a urmoq* kabi birliklarning qo'llanishi jadid publitsistikasida frazemalarning nafaqat nominativ, balki baholovchi va tanqidiy vazifa bajarганиni ko'rsatadi. Bunday birliklar orqali muallif fikrning ekspressivligini kuchaytiradi va o'quvchiga munosabatning subyektiv-baholovchi mazmunini yetkazadi.

A. Avloniy ijodida ham arxaik va tarixiy leksik birliklarning frazeologik hamda poetik qurilmalar tarkibida qo'llanishi kuzatiladi. Adibning she'rriy va publitsistik merosi tarkibidagi *xobi g'afat*, *bag'ri sadpora*, *afv pardasi ila yopmoq* singari birliklar jadid davri adabiy tilining leksik-semantik rang-barangligini namoyon etadi [4, 23, 49, 69-b.]. Bu birliklarda arxaik komponentlar oddiy tarixiy qoldiq sifatida emas, balki muayyan badiiy-estetik vazifani bajaruvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, *xob* va *sadpora* kabi leksemalar poetik matnda obrazning tarixiyliyini kuchaytirib, mazmunni mumtoz adabiy an'ana bilan bog'laydi.

A. Fitratning publitsistik, badiiy va ilmiy merosi esa jadid davri tilining ijtimoiy-tanqidiy imkoniyatlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Uning asarlarida metaforik-frazeologik birliklarning ijtimoiy hodisalarni obrazli ifodalash, tanqidiy munosabatni kuchaytirish va muayyan holatni baholashdagi imkoniyatlari yaqqol ko'rinadi [7, 85–95-b.]. Jumladan, *ilm-u fazilat nog'orasining shovqinini sharofat deb ko'tarib yurmoq*, *falokat poyasig'a yetmoq* kabi ifodalar frazeologik birlik va individual-mualliflik obrazining tutashgan nuqtasini ko'rsatadi. Bu kabi birliklarni tahlil qilishda ularning lug'atdagi tayyor frazema sifatidagi maqomidan tashqari, muallif tomonidan kontekstda qayta shakllantirilgan obrazli birikma sifatidagi xususiyatini ham hisobga olish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot uchun Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydigan arxaiklashgan frazeologik va obrazli birliklar material sifatida tanlab olindi. Materiallarni tahlil qilishda tavsifiy, semantik-komponent, kontekstual, diaxron-qiyosiy va lingvomadaniy metodlardan foydalanildi.

Diaxron-qiyosiy metod asosida jadid davrida qo'llangan frazemalar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ma'noviy va shakliy muqobilari bilan qiyoslandi. Semantik-komponent tahlil orqali iboralar tarkibidagi eskirgan leksemalarning frazeologik ma'noni shakllantirishdagi o'rni aniqlandi. Kontekstual metod yordamida birliklarning muayyan matndagi ma'nosi, emotsional-ekspressiv va baholovchi imkoniyatlari belgilandi. Lingvomadaniy tahlil esa arxaik birliklarning muayyan tarixiy davr tafakkuri va madaniy xotirasi bilan bog'liqligini ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar

"Yuz" leksemasi bilan bog'liq frazemalar insonning ruhiy holati, munosabati va his-tuyg'ularini obrazli ifodalashda muhim o'rinni tutadi. "O'zbek tili frazeologik lug'ati"da *yuz(i)ga solmoq* iborasi "aybli deb qaralgan kishining o'ziga shu haqda kesatib, achitib gapirmoq" ma'nosida izohlangan. Uning *yuzga solmoq*, *bet(i)ga solmoq* kabi variantlari ham mavjud [O'TFL, 582].

Behbudiy asaridan olingan quyidagi parchada mazkur frazemaning arxaik shakli sifatida *yuzig'a urmoq* frazeologik birligi qo'llangan: *...diqqat ila munaqqid so'zini tinglaymiz, munaqqid biz to'g'rimizda ming so'z ila bayoni muddao etar ekan, biz oni ichindan o'n so'zni noma'qul topib, yuzig'a urarmiz* [Mahmudxo'ja Behbudiy, 82]. Parchadagi *yuzig'a urmoq* iborasi "birovning kamchiligi yoki noma'qul ishini uning o'ziga ta'na bilan aytmoq" ma'nosini anglatadi. Uning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi muqobili *yuziga solmoq* shaklidir. Mazkur frazemada umumiy semantika saqlangan, biroq tarixiy shakldagi "urmoq" komponenti zamonaviy tilda "solmoq" fe'li bilan almashgan. Shu bois *yuzig'a urmoq* va *yuziga solmoq* birliklarini leksik jihatdan qayta shakllangan tarixiy variantdosh frazemalar sifatida baholash mumkin.

Iboralar, ko'pincha, personajlarning ichki holati, his-tuyg'ulari yoki muayyan voqealarga bo'lgan munosabatlarini ifodalashda juda samarali vosita hisoblanadi. Ammo yozuvchi har doim ham iborani o'z holda, klassik shaklda qo'llamaydi. U maqsadga muvofiq tarzda iboraning tarkibini erkin birkmalar bilan boyitib, uning ta'sirchanligini oshiradi. Bu usul adibning ijodiy yondashuvini namoyon etadi, chunki erkin birkmalar va ko'proq tasavvurga asoslangan iboralar o'quvchining his-tuyg'ulariga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin [1, 61-b.].

"Ko'z" komponentli iboralar eng qadimgi umumturkiy frazeologik qatlama mansubdir. Lug'atda *ko'zdan tushurmoq* [ko'zdan tüşür=] iborasi tarixiy birlik sifatida qayd etilib, "e'tibordan chetda qoldirmoq, unutmoq" ma'nolarini ifodalashi ko'rsatilgan [2, 265-b.]. "Shuning uchun kundan-kun muhim tarixiy kitoblarni ko'zdan tushub, esdan chiqub ketmaktadurki, muning ayb-u gunohi Turkistondagi manfaatparast kitobchilar bo'yniga

tushsa kerak” [3, 85-b.] parchasida mazkur ibora ko'zdan tushmoq shaklida qo'llanib, “e'tibordan chetda qolmoq, unutilmoq” ma'nosini anglatadi.

Xalq tilida *aybini yopmoq* iborasi “xaspo'shlamoq, yashirmoq, berkitmoq” ma'nolarini ifodalaydi. Abdulla Avloniy asaridan olingan quyidagi parchada ushbu frazemaga semantik jihatdan yaqin frazeologik birlik qo'llangan: *Shoyadki, birodarlarim – muallim afandilar-da banim bu jasoratimdagi qusuroti afu pardasi ila yopub, maktablarda ash'or ta'limi uchun bu majmuani itixob edarlar* [4, 23-b.]. Gapdagi *jasoratimdagi qusuroti afu pardasi ila yopmoq* iborasi “muallifning kamchiliklarini kechirmoq, ularga ko'z yummoq, ayblamaslik” ma'nosini anglatadi. Bu erda *jasoratimdagi qusurlar* [kamchiliklar] muallifning asar yaratishga jur'at etishda yo'l qo'ygan kamchilik va nuqsonlarini bildiradi. *Afu pardasi* esa kechirim va marhamatning metaforik timsoli bo'lib, kamchiliklar go'yo parda bilan yopiladigan narsadek tasvirlangan. Mazkur birlik *aybini yopmoq* frazemasi bilan “kamchilikni oshkor qilmaslik” umumiy semasi asosida yaqinlashadi. Biroq *aybini yopmoq* iborasida “yashirish” ma'nosi ustun bo'lsa, *afu pardasi ila yopmoq* birligida “kechirish, bag'rikenglik va aybga e'tibor bermaslik” ma'nolari kuchliroq namoyon bo'ladi. Shu sababli ularni mutlaq sinonim emas, balki kontekstual-semantik sinonimlar sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

“Xob” leksemasi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, “uyqu, tush” ma'nolarini anglatadi [5, 403-b.]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida u mustaqil holda faol qo'llanilmaydi, asosan, tarixiy va poetik matnlarda uchraydi.

Abdulla Avloniyning:

Ilm ila olam musaxxar bo'ldi, biz johil hanuz,

Xobi g'aflat boshimizg'a etsa ham g'ofil hanuz [Abdulla Avloniy, 69]

misralarida *xobi g'aflat boshiga etmoq* frazeologik birligi qo'llangan. Mazkur birlik “g'aflat uyqusi butunlay egallamoq, hushyorlik va anglash qobiliyatidan mahrum etmoq” ma'nosini ifodalaydi. U hozirgi o'zbek tilidagi *g'aflat bosmoq* frazemasi bilan semantik jihatdan yaqin bo'lib, “ma'lum muddat hushyorlikni va teran fikrlashni yo'qotmoq” mazmunini bildiradi. Mazkur misolda “g'aflat” uyquga qiyoslanib, jaholat inson ongini qamrab oluvchi holat sifatida tasvirlangan. “Xob” komponentining eskirishi natijasida birlikning tarixiy shakli arxaiqlashgan, uning mazmuni esa zamonaviy tildagi *g'aflat bosmoq* iborasida saqlanib qolgan.

Bag'ir leksemasi asosida shakllangan *bag'ri qon*, *bag'ri tosh*, *bag'rini ezmoq* iboralari ham inson ruhiy holati bilan bog'liq “xafalik”, “mehrsizlik” semalarini o'zida namoyon qiladi [6, 96-b.]. “Sadpora” so'zi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, “yuz bo'lak, parcha-parcha, tilka-pora” ma'nolarini anglatadi [5, 419-b.]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu leksema faol qo'llanilmaydi va asosan mumtoz hamda tarixiy-poetik matnlarda uchraydi. Abdulla Avloniyning:

Kecha-kunduz nafs uchun sarson o'lub ovoralar,

Ba'zisin millat g'aminda bag'ridur sadporalar [4, 49-b.]

misralaridagi *bag'ri sadpora* iborasi “bag'ri parcha-parcha bo'lgan, qattiq iztirob chekkan” ma'nosini ifodalaydi. Unda millat g'ami inson bag'rini go'yo tilka-pora qiladigan kuch sifatida tasvirlangan. Mazkur birlik hozirgi o'zbek tilidagi *bag'rini yirtmoq*, *bag'ri qon bo'lmoq*, *yuragi ezilmoq* kabi frazemalarga semantik jihatdan yaqindir. Biroq *bag'rini yirtmoq* ko'proq “qiynamoq, azoblamoq” ma'nosini anglatadi, *bag'ri sadpora* “insonning azob natijasidagi ruhiy holati”ni ifodalaydi. *Bag'ri sadpora* frazeologik birligi chuqur qayg'u va iztirobni somatik obraz orqali ifodalaydigan arxaiq poetik qurilmadir. Uning tarkibidagi “sadpora” komponenti eskirgan bo'lsa-da, umumiy semantik mazmun zamonaviy tildagi *bag'ri qon bo'lmoq*, *yuragi ezilmoq* kabi frazemalarda saqlanib qolgan.

“Poya” leksemasi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, “zinapoya, pog'ona, bosqich, oyoq, etak” kabi ma'nolarni anglatadi [5, 304-b.]. Mazkur leksema ko'chma ma'noda “daraja, bosqich, martaba” tushunchalarini ham ifodalagan. Biroq uning bu ko'chma ma'noda qo'llanishi bugungi o'zbek adabiy tilida deyarli uchramaydi. Shu sababli “poya” leksemasining “daraja, bosqich” ma'nosini semantik jihatdan arxaiqlashgan ma'no sifatida baholash mumkin. Quyidagi gapda “poya” leksemasi ishtirok etgan iborani ham ko'rish mumkin: *...begonalarning shuhrati, ilm-u fazilat nog'orasining shovqinini sharofat deb ko'tarib yurishga majbur bo'ldingki, bu jaholat va falokat poyasig'a etib qolg'oningdandir, bechora Buxoro!* [7, 90-b.] parchasida *ilm-u fazilat nog'orasining shovqinini sharofat deb ko'tarib yurmoq* hamda *falokat poyasig'a etmoq* kabi obrazli frazeologik birliklar qo'llangan.

Ilm-u fazilat nog'orasining shovqinini sharofat deb ko'tarib yurmoq ifodasi “begonalarning ilmiy va ma'naviy yutuqlarini o'ziga sharaf deb bilib, ular bilan maqtanib yurish” ma'nosini ifodalaydi. *Nog'ora shovqini*

shuhratning oshkora yoyilishini bildiruvchi metaforik obraz bo'lib, birlikda kinoya va tanqid mazmuni ustunlik qiladi. *Falokat poyasig'a etmoq* esa “falokatning yuqori darajasiga etmoq, tanazzulga yuz tutmoq, og'ir ahvolga tushmoq” ma'nolarini anglatadi. Uning zamonaviy muqobilari sifatida *falokat darajasiga etmoq*, *tanazzul yoqasiga kelib qolmoq*, *halokatga yuz tutmoq* iboralarni keltirish mumkin.

Muhokama

Jadid davri yozma manbalarida uchraydigan arxaiqlashgan frazeologik birliklarni tahlil qilish ularning oddiy eskirgan til hodisasi emas, balki o'zbek frazeologik tizimining tarixiy taraqqiyotini ko'rsatuvchi murakkab birliklar ekanini ko'rsatadi. Bunday frazemalarning asosiy xususiyati shundaki, ularning tarixiylashuvi ko'pincha umumiy frazeologik mazmunning butunlay yo'qolishi bilan emas, balki tarkibiy komponentlardan birining eskirishi, shakliiy variantning almashishi yoki muayyan poetik-uslubiy doiraga chegaralanishi orqali yuzaga keladi. Demak, frazeologik arxaiqlashuvni shakliiy va semantik jarayonlarning o'zaro munosabati asosida izohlash maqsadga muvofiq.

Tahlil qilingan materiallarda arxaiqlashuvning eng muhim ko'rinishlaridan biri frazema tarkibidagi alohida komponentning zamonaviy muqobil bilan almashishidir. *Yuzig'a urmoq* va hozirgi tildagi *yuziga solmoq* birliklari o'rtasidagi munosabat bunga yaqqol misol bo'la oladi. Har ikki birlikning semantik yadrosida shaxsning kamchiligini yoki aybini uning o'ziga ta'na bilan bildirish mazmuni mavjud. Biroq *urmoq* va *solmoq* komponentlarining almashishi frazemaning tashqi shaklida tarixiy o'zgarish yuz berganini ko'rsatadi. Bu holat frazeologik birliklarning tarkibiy barqarorligi mutlaq emasligini, til taraqqiyoti davomida ayrim komponentlar faol leksik birliklar bilan almashtirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, barcha arxaiq birliklarni zamonaviy frazemalarning to'g'ridan-to'g'ri tarixiy varianti sifatida baholash to'g'ri emas. *Afu pardasi ila yopmoq* va *aybini yopmoq* birliklari o'rtasidagi munosabatda semantik yaqinlik mavjud bo'lsa-da, ularning ma'no tarkibi aynan bir xil emas. Birinchi birlikda kechirim, bag'rikenglik va kamchilikka ko'z yumish semalari kuchli bo'lsa, ikkinchisida ayb yoki kamchilikni yashirish semasi ustunlik qiladi. Shuning uchun bunday birliklarni mutlaq sinonimlar emas, balki umumiy semantik komponent asosida yaqinlashuvchi kontekstual-semantik birliklar sifatida baholash mumkin. Bu holat arxaiq frazemalarni zamonaviy muqobillar bilan qiyoslashda faqat lug'aviy moslikka emas, balki kontekstual ma'noga ham tayanish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiq etilgan materiallarda somatik komponentli frazemalar alohida qatlarni tashkil etadi. *Yuz, ko'z, bag'ir* kabi tana a'zolari nomlari asosida shakllangan birliklar insonning ruhiy holati, ijtimoiy munosabati va axloqiy bahosini ifodalashda faol vosita bo'lgan. Somatik obrazning bunday barqarorligi xalqning tarixiy obrazli tafakkuri bilan bog'liq. Masalan, ko'zning “e'tibor” va “nazorat” bilan, yuzning “insonning o'zi yoki uning obro'si” bilan, bag'irning esa “ruhiy kechinma” bilan bog'lanishi frazeologik ma'noning shakllanishida milliy-madaniy tasavvurlar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu jihatdan arxaiq somatik frazemalar til tarixini o'rganish bilan birga, lingvomadaniy mazmunni aniqlash uchun ham muhim materialdir.

Ko'zdan tushmoq birligi esa frazeologik ma'noning tarixiy davomiyligi masalasi ko'rsatadigan xarakterli misollardan biridir. Mazkur birlikdagi *ko'z* komponenti zamonaviy tilda ham faol bo'lsa-da, uning frazeologik qurilmasi va ma'no qamrovi tarixiy manbalarda o'ziga xos qo'llanish xususiyatiga ega. Bu holat arxaiqlashuv har doim ham frazema tarkibidagi alohida so'zning eskirishi bilan bog'liq bo'lmagligini ko'rsatadi. Ayrim hollarda birlikning o'zi ma'lum ma'no yoki uslubiy vazifada nafaol qatlarga o'tishi mumkin. Shuning uchun frazeologik arxaiqlashuvni komponential arxaiqlashuv va birlikning funksional arxaiqlashuvi kabi ko'rinishlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

Avloniy matnlari uchraydigan *xobi g'aflat* va *bag'ri sadpora* kabi birliklarda arxaiq komponentlarning poetik-estetik vazifasi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. *Xob* va *sadpora* leksemalarining zamonaviy faol nutqdagi chekinishi ularning matndagi obrazlilik imkoniyatini yo'qqa chiqarmaydi. Aksincha, tarixiy komponentlar matnga mumtoz adabiy an'ana bilan bog'liq ohang, poetik rang va emotsional ta'sirchanlik beradi. Demak, arxaiqlashgan komponentning badiiy matnda saqlanib qolishi uning faqat til tarixidagi qoldiq sifatidagi vazifasi bilan izohlanmaydi; u muallifning estetik maqsadiga xizmat qiluvchi uslubiy vositaga ham aylanishi mumkin.

Bag'ri sadpora birligida somatik obraz va miqdoriy obrazning qo'shilishi ayniqsa e'tiborlidir. *Bag'ir* insonning ichki kechinmalarini, *sadpora* esa uning parcha-parcha bo'lish holatini ifodalab, kuchli ruhiy iztirobning yaxlit obrazini yaratadi. Zamonaviy tildagi *bag'ri qon bo'lmoq*, *yuragi ezilmoq* kabi birliklar bilan qiyoslanganda, mazmuniy yadroning davomiyligi ko'rinadi, biroq obrazni yaratish mexanizmi va leksik vositalar o'zgaradi. Bu esa frazeologik tizimda semantik davomiyligi va shakliiy yangilanish parallel kechishini ko'rsatadi.

Fitrat matnlaridagi obrazli birliklar esa arxaik frazeologiyaning individual-mualliflik ijodi bilan munosabatini ko'rsatadi. *Ilm-u fazilat nog'orasining shovqini sharofat deb ko'tarib yurmoq* kabi ifodalarda tayyor frazeologik model bilan individual metaforik qurilma o'zaro uyg'unlashadi. *Nog'ora shovqini* obrazi shuhratning tashqi va ko'z-ko'z qilinadigan ko'rinishini anglatib, muallifning tanqidiy munosabatini kuchaytiradi. Bunday birliklarni an'anaviy lug'aviy frazemalar bilan bir qatorda ko'rish ehtiyoqkorlikni talab qiladi. Chunki ularning ayrimlari xalq tilida tayyor holda mavjud bo'lgan frazema emas, balki muallif tomonidan mavjud obrazli modellar asosida yaratilgan individual birikmalar bo'lishi mumkin.

Falokat poyasig'a yetmoq birligida esa arxaik komponentning semantik imkoniyati muhim ahamiyatga ega. *Poya* leksemasining "bosqich, daraja" ma'nosi asosida falokatning ma'lum bir yuqori darajasiga yetish holati obrazlashtirilgan. Zamonaviy nutqda mazkur mazmun *falokat darajasiga yetmoq, tanazzul yoqasiga kelmoq* kabi boshqa qurilmalar yordamida ifodalanishi mumkin. Bu misol frazeologik birliklarning tarixiy o'zgarishi faqat so'zlarning yo'qolishi emas, balki bir xil mazmunni ifodalovchi yangi model va konstruksiyalarning shakllanishi bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida jadid davri yozma manbalaridagi arxaiklashgan frazeologik birliklarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: birinchisi, tarkibidagi arxaik komponent tufayli tarixiylashgan frazemalar; ikkinchisi, shakli tarixiy bo'lsa-da, semantik yadrosi zamonaviy frazemalarda davom etayotgan birliklar; uchinchisi, tarixiy komponentlar asosida individual-poetik yoki kontekstual obraz sifatida yuzaga kelgan birliklar. Bunday tasnif arxaik frazemalarning turli darajadagi tarixiylik xususiyatini farqlash imkonini beradi.

Muhokama qilingan materiallar yana bir muhim jihatni ko'rsatadi: jadid adiblari arxaik frazeologik birliklardan passiv tarixiy birlik sifatida foydalanmagan. Ular bunday birliklarni ko'pincha ijtimoiy tanqid, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ifodalash, jaholat va loqaydlikni qoralash, milliy ongni uyg'otish kabi maqsadlarda qo'llaganlar. Natijada arxaik frazemalar tarixiy til materiali bo'lish bilan birga, jadid matnlarining g'oyaviy-estetik ta'sirchanligini ta'minlovchi vositaga ham aylangan.

Shu nuqtayi nazardan jadid davri frazeologiyasini o'rganishda "eskirgan birlik" va "tarixiy birlik" tushunchalarini o'zaro farqlash muhimdir. Ayrim birliklarning komponentlari hozirgi tilda faol bo'lmasa-da, ularning ma'naviy modeli yoki obrazli asosi saqlanib qolgan. Boshqa birliklar esa faqat tarixiy matnlar doirasida uchrab, zamonaviy til tizimida faol muqobilga ega emas. Demak, frazeologik arxaiklashuvni baholashda shakliy eskirish, semantik davomiylik, uslubiy cheklanish va funksional faollik kabi mezonlarni birgalikda hisobga olish zarur.

Jadid davri yozma manbalaridagi arxaiklashgan frazeologik birliklar o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida uzilish emas, balki davomiylik va yangilanish jarayonlarining bir vaqtda kechganini namoyon etadi. Frazemalarning ayrim komponentlari almashgan, ayrim obrazlar zamonaviyroq vositalar bilan ifodalangan, ayrim tarixiy birliklar esa poetik uslub doirasida saqlanib qolgan. Shu sababli jadid matnlari materialida

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Farmonova U. "Qisasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan frazemalar tadqiqi / Monografiya / – Farg'ona: "Classic", 2025, – 136 b.
2. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / – Toshkent G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 421 b.
3. Behbudiy M. Saylanma / to'plab nashrga tayyorlovchi I.Madg'oziyev. – Toshkent: Zabarjad Media, 2025. – 429 b.
4. Abdulla Avloniy. She'rilar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma [Matn] / Qayta nashr, – Toshkent: "Zabarjad Media", 2024. – 432 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 304 b.
6. Ганиева Ш. Ўзбек тилида "ҳолат" архисемали фраземалар таҳлили. Илмий хабарнома. АДУ, 2010. – №4. – Б. 96.
7. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat. She'rilar, nasriy asarlar, dramalar, publitsistika, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid maqolalar [Matn] \ qayta nashr. – Toshkent: Zabarjad Media, 2024. – 400 b.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 382 b.
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b.

kuzatiladigan frazeologik birliklarni tarixiy shakl va zamonaviy semantika o'rtasidagi munosabat asosida o'rganish o'zbek frazeologiyasining diaxron taraqqiyot qonuniyatlarini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

Xulosa

Jadid davri yozma manbalaridagi arxaiklashgan frazeologik birliklar o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini va frazeologik tizimdagi davomiylikni aniqlashda muhim lingvistik manba hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday birliklarda arxaiklashuv jarayoni bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi: ayrim hollarda frazemaning alohida komponenti eskirsa, ba'zilarida tarixiy leksik birlik zamonaviy sinonimi bilan almashadi, boshqa holatlarda esa butun poetik-frazeologik model nafaol qatlamga o'tadi. Arxaiklashgan frazeologik birliklarning tahlili ularning tarixiy shakli bilan hozirgi o'zbek tilidagi semantik davomiyligi o'rtasida uzviy aloqa mavjudligini ko'rsatadi. Frazema tarkibidagi ayrim leksemlarning iste'moldan chiqishi birlikning mazmuniy asosini har doim ham yo'qotmaydi. Aksincha, mazkur ma'no zamonaviy tilda boshqa komponentlar, sinonimik birliklar yoki yangi frazeologik modellar orqali davom etishi mumkin. Shu jihatdan frazeologik arxaiklashuvni til tizimining tabiiy yangilanish jarayoni sifatida baholash mumkin. Jadid davri materiallari arxaik frazemalarning bir vaqtning o'zida bir necha funksiyani bajarganini ko'rsatadi. Ular fikrni ixcham va obrazli ifodalash bilan birga, matnga tarixiy kolorit, emotsional-ekspressivlik, kinoya, tanqidiy munosabat va poetik ta'sirchanlik olib kirgan. Ayniqsa, *yuz, ko'z, bag'ir* kabi somatik komponentlar ishtirokidagi birliklarda insonning ichki holatini tashqi tana obrazlari orqali ifodalash an'anasi barqaror saqlangan. Bu holat frazeologik birliklarning xalqning obrazli tafakkuri va lingvomadaniy tajribasi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Tahlil qilingan materiallar asosida arxaiklashgan frazemalarni baholashda uchta asosiy mezonni ajratish mumkin: frazema tarkibidagi tarixiy komponentning mavjudligi, birlik semantik yadrosining zamonaviy tilda davom etishi va uning badiiy-uslubiy faollik darajasi. Mazkur mezonlar asosida tarixiy shakli butunlay nafaol birliklarni, zamonaviy muqobili mavjud bo'lgan tarixiy variantlarni hamda faqat poetik yoki individual-mualliflik kontekstida yashab qolgan obrazli birliklarni farqlash mumkin. Arxaik frazemalarni o'rganish lug'atshunoslik uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Tarixiy va jadid davri matnlarida uchraydigan bunday birliklarning izohli, frazeologik va tarixiy lug'atlarda alohida qayd etilishi ularning ma'no taraqqiyotini to'liqroq aks ettirishga yordam beradi. Ayniqsa, frazemaning tarixiy shakli, zamonaviy varianti, semantik o'zgarishi va qo'llanish konteksti birgalikda ko'rsatilsa, frazeologik birliklarning diaxron rivojlanish xaritasini yaratish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, jadid davri yozma manbalaridagi arxaik frazemalar o'zbek adabiy tilining mumtoz an'anadan zamonaviy milliy adabiy tilga o'tish jarayonini kuzatishda muhim til materiali bo'lib xizmat qiladi. Ularning tarkibi va semantik tuzilishidagi o'zgarishlar tilning yangilanish jarayonini, badiiy matndagi qo'llanishi esa jadid adiblarning milliy til imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish mahoratini namoyon etadi. Shu sababli mazkur birliklarni kelgusida jadid davrining turli janrlari publitsistika, drama, she'riyat, nasr va pedagogik asarlar kesimida qiyosiy o'rganish frazeologik tizimning tarixiy taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarni yanada boyitadi.

10. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 1997. – 240 b.
11. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand: SamDU nashri, 2007. – 120 b.
12. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
13. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
14. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 b.
15. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 184 b.
16. Abdurahmonov G'., Rustamov H. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – 168 b.
17. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Turkum so'zlarining o'zlashgan qatlamlari. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.
18. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.
19. Qosimov B., Dolimov U., Riayev Sh. va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 464 b.